UMUMTA’LIM SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR

Mamatov Nodirbek Saydivoqosovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekan muovini
nodirxuja77@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda umumta’limni moliyalashtirishning to‘rt nazariy konsepsiyasi va Finlyandiya, Estoniya, Polsha, Janubiy Koreya tajribasi qiyosiy ko‘rib chiqilgan; jon boshiga modelni tuzatuvchi koeffitsiyentlar bilan qo‘llash zarurati asoslangan.

Kalit so‘zlar: umumta’lim maktablarida jon boshiga moliyalashtirish, fiskal federalizm, inson kapitali, xorijiy tajriba; общее образование, подушевое финансирование; general education, per-capita funding.

Аннотация. Рассмотрены четыре теоретические концепции финансирования общего образования и опыт Финляндии, Эстонии, Польши, Южной Кореи; обоснована необходимость применения подушевой модели с корректирующими коэффициентами.

Abstract. Four theoretical concepts of school finance and the experience of Finland, Estonia, Poland and South Korea are compared; the need to apply per-capita funding together with correcting coefficients is substantiated.

Kirish

Umumta’lim maktablari inson kapitali sifatini belgilovchi strategik tarmoq bo‘lib, uni moliyalashtirish mexanizmi eng muhim, ya’ni mablag‘ hajmi kabi muhimdir. O‘zbekistonda byudjet xarajatlari o‘sayotgan bo‘lsa-da, ularning ko‘p hollarda smeta usuli bilan taqsimlanishi maktabning real ehtiyoji va o‘quvchilar soni dinamikasini yetarlicha aks ettirmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ta’limni moliyalashtirish to‘rt konsepsiya atrofida rivojlanadi, inson kapitali nazariyasi (T.Shuls, G.Bekker) xarajatni investitsiya sifatida asoslaydi [1], fiskal federalizm (Ch. Tibu, U.Outs) vakolat va resurslar taqsimotini belgilaydi [2], natijaga asoslangan va jon boshiga moliyalashtirish esa mablag‘ni maktablar o‘rtasida taqsimlaydi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy usul, tizimli yondashuv va adabiyotlarni mazmunan guruhlashdan

foydalanildi.

Natijalar va muhokama

Finlyandiyada xarajatning taxminan 75 foizini munitsipalitetlar, 25 foizini davlat qoplaydi va transfertlar demografik omillarga ko‘ra hisoblanadi. Estoniyada jon boshiga grantlar tizimi qishloq maktablarining yopilishiga olib kelgani uchun 2008-yilda kichik maktablar foydasiga tuzatildi. Polshada 1999-yildan formulali jon boshiga moliyalashtirish qo‘llanib, 21 tagacha vazn koeffitsiyenti ishlatilgan. Janubiy Koreyada umumta’lim maktablarida davlat ulushi 96,1 foiz (OECD o‘rtachasi 90,1 foiz), xususiy sektor ustuvorligi esa oliy ta’limga xos tarmoq [3]. Natija shuni ko‘rsatadiki, «sof» jon boshiga model kichik va qishloq maktablari uchun xavfli, shuning uchun u deyarli doimo tuzatuvchi koeffitsiyentlar va ishonchli monitoring bilan birga qo‘llanadi.

Milliy tadqiqotlar esa asosan konseptual darajada qolgan, normativ formula miqdoriy asoslanmagan.

Xulosa

Nazariy konsepsiyalar bir-birini to‘ldiradi, O‘zbekiston uchun normativ, natijaviy va hududiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan, xorijiy modellarni ko‘chimagan holda milliylikdan kelib chiqqan holda xorijiy tajribalarni qo‘llash va moslashtirgan yondashuv maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Schultz T.W. Investment in Human Capital // American Economic Review. 1961. Vol. 51, No.

2. P. 1–17.

3. Tiebout C.M. A Pure Theory of Local Expenditures // Journal of Political Economy. 1956. Vol. 64, No.

4. P. 416–424.

5. OECD. Education at a Glance 2025: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2025. URL: https://doi.org/10.1787/1c0d9c79-en